

# TTPU da Google developers talabalar klubi ochildi

Google developers talabalar klubi dasturlash sohasida tajriba almashish, nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarni rivojlantirishga yordam beruvchi klublardan biri bo'lib, Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetida ham o'z faoliyatini boshladi.











Unda dasturchi sifatida o'sishga qiziqqan barcha talabalar qatnashishi mumkin. Klubning asosiy maqsadi talabalar texnologiya va startap g'oyalarini o'zaro almashish, Google

texnologiyalaridan foydalangan holda mahalliy hamda global muammolarga yechim topishlarida ko'maklashishdan iborat.

Tadbirda GDG tashkilotchisi, lideri va android dasturchisi Azamat Majidov, Nuruddin Iminohunov va yurtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari GDSC liderlari so'zga chiqib, sohaga oid mavzularda talabalar bilan qiziqarli suhbat o'tkazib, fikr almashdilar.